

**ADABIY TA'LIMDA UVAYSIY IJODI ORQALI O'QUVCHILARNING
MADANIY-TARIXIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH: METODIK
VA IDENTITET MASALALARI**

Xasanova Zulfiraxon

xasanovazulfiraxon@gmail.com

Qo'qon davlat universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan mumtoz adabiyotimizning yirik vakili Jahonotin Uvaysiy ijodi misolida o'quvchilarning madaniy-tarixiy tafakkurini rivojlantirish va milliy identitetni shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda shoiraning “Sog‘indim” radifli g‘azali misolida ona va farzand munosabatlari, farzand dog‘i va insoniy iztirobning badiiy talqini metodik jihatdan yoritilgan. Maqolada an‘anaviy dars usullaridan farqli o‘laroq, o‘quvchini faol fikrlashga undovchi “muammoli ta’lim” metodining afzalliklari va uning shaxs ma’naviyatini yuksaltirishdagi o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Uvaysiy, “Sog‘indim” g‘azali, madaniy-tarixiy tafakkur, milliy identitet, muammoli ta’lim, metodika, tasavvuf, ona obrazi, lirik qahramon, hissiy intellekt.

Abstract: This article analyzes the issues of developing students' cultural-historical thinking and forming national identity, focusing on the creative heritage of Jahonotin Uvaysi, a prominent figure in classical Uzbek literature. Using her gazel with the radif "Sog‘indim" (I Have Missed), the study methodologically explores the relationship between mother and child, as well as the artistic interpretation of a parent's grief and human suffering. Moving away from traditional teaching methods, the paper highlights the advantages of the "problem-based learning" approach in encouraging active thinking and its role in elevating a student's spiritual and moral development.

Keywords: Uvaysi, "Sog‘indim" gazel, cultural-historical thinking, national identity, problem-based learning, methodology, Sufism, image of a mother, lyrical protagonist, emotional intelligence.

Mustaqillik sharofati bilan mumtoz adabiyotimizni chuqur ilmiy-nazariy, falsafiy-irfoniy yo‘nalishda, xolis qayta baholash imkoni tug‘ildi. Buyul allomalatimiz meros qilib qoldrigan asarlarni badiiylik mezonlari asosida yangicha nuqtai nazar bilan tadqiq etish muhim maqomga ko‘tarildi. Jumladan, Jahonotin Uvaysiy asarlari ham keng qamrovli, teran mohiyatni o‘zida mujassamlashtirgan falsafiy-irfoniy ma’nolardan xoli emas. Xususan, ishq mavzusi olam, odam va Olloh munosabatlarini o‘zida uyg‘unlashtiradi. Agar uni faqat insonning insonga munosabati tarzida

anglasak, shoira fikr-g‘oyalaridan uzoqlashib, uning nuqtai nazari, dunyoqarashi va hayotiy xulosalarini noto‘g‘ri tushunamiz. Shu bois, shoira lirik merosini tasavvuf ta‘limoti g‘oyalari nuqtai nazaridan qayta baholaganimizda, uning mutasavvuf shoira ekanligi ayon bo‘ladi. Ya‘niki, shoira ijodini o‘rganishda asarlari zamiridagi ko‘pqatlamli ma‘nolar qamrovi, g‘oyaviy rang-baranglik, tasavvuf bilan bog‘liq teran mazmun va qofiya, radif irfoniylilik, badiiy mahorat, timsollar ko‘lami va mohiyati, janrlar takomili, qo‘llashdagi o‘ziga xosliklari kabi o‘nlab masalalar alohida e‘tibor qaratishni taqozo qiladi.[2.4]

Yurtimizning strategik rivojlanish tamoyillari belgilanar ekan, “Avvalo xalqimizning yaratuvchilik dahosi bilan bunyod etilgan noyob merosini har tomonlama chuqur o‘rganish, yurtimizdan etishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg‘otish, yosh avlodni gumanistik g‘oyalar, milliy g‘urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar ko‘zda tutilgan”. [1]

Shundan kelib chiqib, bugungi kichik tadqiqotimizda shoira adabiy merosini umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan “Sog‘indim” radifli g‘azalinig o‘qitilishi xususida hamda o‘quvchining tarixiy-madaniy tafakkuriga ta‘sir ko‘lami xususida muhokama qilinadi va tavsiyalar beriladi.

Kichik tadqiqotimizda Uvaysiyning “Sog‘indim” radifli g‘azalini tahlil qilamiz.

*Bukun, ey do‘stlar, farzandi jononimni sog‘indim,
Gado bo‘lsam, ne ayb, ul shohi davronimni sog‘indim.
Musofirman, g‘aribman, bekas-u ham benavodurman,
Vujudim darda to‘ldi, emdi darmonimni sog‘indim.
Tilimning zikri-yu ko‘nglimni fikri, yaxshi farzandim,
Azizim, yolg‘uzim, davlatli sultonimni sog‘indim.
Kecha-kunduz yo‘lig‘a muntazirdurman, tikarman ko‘z,
Kelib holim so‘rubon ketsa, mehmonimni sog‘indim.
Nasibin uzmadi tangrim, ilojin topmag‘ay kelsa,
Onam deb bo‘lg‘usi bag‘ri qizil, qonimni sog‘indim.
Qorong‘u bo‘ldi olam ko‘zima ushbu judolikdin,
Ko‘z-u ko‘nglum ziyosi, mohi tobonimni sog‘indim.
Mani bekas Uvaysiy, yig‘larman ro‘z-shab tinmay,
Uyimning ziynati, ko‘z ravshani, xonimni sog‘indim. [3.132]*

Ushbu g‘azal shoira Uvaysiyning eng dardli va farzand dog‘ini tuygan *onalar* tug‘yoni haqidagi ta‘sirli va hissiy jihatdan og‘ir misralaridir. Ushbu g‘azal yozilishining o‘z tarixi mavjud. Uning yozilish tarixi shoiraning shaxsiy hayotidagi og‘ir judolik — farzand dog‘i bilan bevosita bog‘liq. Bu fojia shoira lirikasi orqali

individual darddan umuminsoniy dard darajasiga ko‘tarilgan. Shoira o‘g‘li Muhammadaminning vafotidan so‘ng bitgan ushbu satrlarida ona qalbidagi tuganmas sog‘inch va ayriliq iztirobi o‘ta ta‘sirli tasvirlar uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

Uvaysiy sh‘eriyatida, xususan, “Sog‘indim” g‘azali milliy identitetni shakllantiruvchi muhim omil bo‘lib, u o‘quvchiga “Biz kimmiz?”, “Qadriyatlarimiz nimalardan iborat?”, “Vaqt mashinasi ona mehriga ta‘sir qilmaydimi?”, “Har vaqt onalar shunday ekanmi?” degan savollarga mantiqiy javob topishida amaliy yordam beradi. Uvaysiy o‘z farzandini “shohi davron”, “davlatli sulton” va “mohi tobon” kabi yuksak tashbehlar bilan ulug‘lar ekan, bu yerda faqatgina onalik mehri emas, balki farzandning ona uchun naqadar muqaddas, hech kimga tenglamasligi va hammadan a‘losi ekanligi haqidagi qadimiy sharqona qarash o‘z ifodasini topgan. Metodik nuqtai nazardan, g‘azalning har bir baytida takrorlanuvchi “sog‘indim” radifi o‘quvchining hissiy intellektiga ta‘sir qilib, unda empatiya tuyg‘usini shakllantiradi. Bu tuyg‘u esa o‘z navbatida tarixiy shaxslarni shunchaki kitobiy qahramon emas, balki tirik taqdirilar sifatida anglashga yo‘l ochadi.

Adabiy ta‘lim metodikasida mazkur asarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarning madaniy-tarixiy tafakkurini rivojlantirish uchun “muammoli ta‘lim” usulidan foydalanish kutilgan samarani beradi. O‘quvchi matnni shunchaki o‘qib chiqmasdan, balki shoira yashagan davr ma‘naviyati, sharqona ayol timsoli va onaning jamiyatdagi mavqeyi kabi masalalarni ham tahlil qila olishi lozim.

Dastlab muammoli ta‘lim metodi o‘zi nima? Uning boshqa metodlardan afzalligi nimada? Shu kabi savollarga batafsil to‘xtalib o‘tamiz. Hamda shoira Uvaysiyning “Sog‘indim” radifli g‘azalini aynan muammoli ta‘lim metodidan foydalanilgan holda o‘quvchiga yetkazilsa, uning tafakkuri qay darajada rivojlanadi, qalbida qanday tug‘yonlar kechadi, g‘azalni muammoli ta‘lim asosida o‘rganamiz.

Ma‘lumki, har qanday inson o‘z oldida ko‘ndalang turgan hayotiy yoki ilmiy muammoni hal etish uchun o‘ylanadi, izlanadi, bilganlarini taftish qiladi, zo‘riqadi, mashaqqat chekadi. Bu ruhan sog‘lom odamga xos bo‘lgan tabiiy xususiyat. Ta‘lim jarayonida shunday vaziyatga solingan o‘quvchi ham ta‘limiy muammoni hal qilish orqali bilim olish yo‘lida mehnat qiladi. Bu borada muammoli ta‘lim metodini qo‘llash ayni muddao. Muammoli ta‘limning asosiy xususiyati shundaki, unda o‘quvchi oldiga bilim berishga yo‘naltiradigan masalalarni qo‘yishda ham, uning ma‘naviyatini shakllantirish yo‘lida ham muammoli savollar muhim o‘rinni egallaydi. Ular muammoli vaziyat hosil qilishning asosiy sharti sanaladi. Bilim berishga qaratilgan savol o‘quvchi uchun ma‘lum qiyinchilik tug‘diradigan darajada bo‘lishi, avval egallagan bilimlariga mos kelishi, shu bilan birga, uning imkoniyatlari doirasida bo‘lishi lozim. [4.115]

G‘azalni muammoli ta’lim asosida o‘rganish

1. Muammoli savol qo‘yish (avval g‘azal ifodali o‘qitiladi)

Dars avvali o‘qituvchi o‘quvchilarga g‘azalni sharhlaydi, balki, shunday savollarni o‘rtga tashlaydi:

- nega shoira Uvaysiy “Sog‘indim” radifli g‘azalida o‘zini “gado” deya ta’riflaydi?

- Uvaysiy dard to‘la vujudiga farzandi darmon ekanligi aytyapti. Farzandlar onalar dardiga darmon bo‘la oladilarmi? Sizningcha hozirgi zamonimizda farzandlar ota-onasiga qanday munosabat qilmoqda?

Bu savollar o‘quvchini tinch qo‘ymaydi, darhol fikrlashga undaydi. Ko‘rinadiki bu savollar o‘quvchining madaniy dunyosini taftish qiladi.

2. Muammoli vaziyatni tahlil qilish

Ona qalbi va ayriliq izzitirobi - **“Farzandi jononimni sog‘indim”**

Ushbu misrada shunchaki sog‘inch emas, onaning farzand sog‘inchida joni halak bo‘lgining eng yuqori va ta’sirchang tasviridir. O‘quvchilarda savol tug‘ilishi tabiiy nega aynan shoira ushbu misrani bitishda *farzandi jononimni sog‘indim* deydi? *Jononim* so‘zi faqatgina muhabbat mavzularida, oshiqning mashuqiga murojaati emasmi? O‘quvchilar tahlil jarayonida shunday xulosaga keladi. Demak, onaning farzandga bo‘lgan mehri oshiq-mashuqning sevgisidanda afzal ekan. Bu foniylar dunyoda onadan aziz, onadanda joni kuyuk zot bo‘lmaydi, degan xulosaga keladi.

Ijtimoiy va ruhiy holat ziddiyati - “Gado bo‘lsam, ne ayb...”

Ushbu misrada shoira Uvaysiy barcha sharqona ayollar xarakterini ochib bergan. Farzand sog‘inchining oldida bu dunyoning noz-ne‘matlari, boyliklari uning uchun hech narsaga arzimastligi, faqatgina farzandi uning boyligi ekanligini anglash mumkin.

Umid va umidsizlik kurashi - “Kecha-kunduz yo‘lig‘a muntazirdurman...”

Bu misralar o‘quvchilarga psixologik jihatdan juda kuchli ta’sir qiladi. Ongida qarama-qarshilik avj ola boshlaydi. farzandining yo‘liga kecha-kunduz ko‘z tikib kutishi umidmi yoki azobmi? O‘quvchilar mulohaza jarayonida savollarga javob oladilar.

Ushbu g‘azalni muammoli ta’lim asosida o‘qitilsa, o‘quvchida faqat bilim emas, balki ichki kechinmalarni ham uyg‘otadi va g‘azal maxzanini o‘z siyratiga ham jo qiladi.

Ya’ni dars faqat adabiyot emas, **tarbiya, o‘quvchining tarixiy-madaniy tafakkurini rivojlantiruvchi vositasiga** aylanadi.

Xulosa

Muammoli ta’lim metodida Uvaysiyning “Sog‘indim” g‘azalini o‘rganish o‘quvchini passiv tinglovchidan faol fikrlovchiga aylantiradi. Natijada u nafaqat she’r mazmunini tushunadi, balki uni his qiladi, tahlil qiladi va o‘z hayoti bilan bog‘lay oladi.

Shu jihatdan bu metod boshqa an’anaviy metodlarga nisbatan ancha samaraliroq hisoblanadi.

Uvaysiyning ushbu g‘azali adabiy ta’limda shunchaki bir lirik asar emas, balki o‘quvchining madaniy-tarixiy tafakkurini shakllantiruvchi metodologik vositadir. Muammoli ta’lim va matn qatlamlarini ochish usullari orqali o‘quvchi adabiyotni hayotning o‘zi deb qabul qiladi. Bu esa o‘z navbatida yosh avlodni o‘z milliy o‘zligini (identitetini) anglagan, ajdodlar merosini qadrlaydigan va yuksak ma’naviyatli shaxs bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi. Uvaysiyning "Sog‘indim" radifli g‘azali o‘quvchi qalbidagi sog‘inch tuyg‘usini umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tarishda eng mukammal namunadir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Uvaysiy ijodi orqali adabiy ta’limni tashkil etish o‘quvchini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning eng ta’sirli yo‘lidir. Bu jarayonda o‘quvchi nafaqat adabiy matnni tahlil qilishni o‘rganadi, balki o‘z xalqining ma’naviy genofondiga daxldorlik hissini tuyadi. Binobarin, “Sog‘indim” g‘azali misolida madaniy-tarixiy tafakkurni rivojlantirish — bu o‘tmish bilan bugunni bog‘lovchi ma’naviy ko‘prikni qurish demakdir. Shoira fojiasi misolida yosh avlodga insoniy qadr-qimmat, sadoqat va sabr darslari beriladi, bu esa adabiy ta’limning asosiy metodologik maqsadiga to‘la mos keladi. Shoira lirikasi orqali o‘quvchilarda shakllangan madaniy identitet ularning kelajakda milliy o‘zligini anglagan, ma’nan barkamol shaxs bo‘lib yetishishlarida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi / Xalq so‘zi. – Toshkent, 2017-yil 4-avgust.
2. Adizova I. Uvaysiy she’riyatida poetik tafakkurning yangilanishi. – Toshkent, 2020.
3. Mirzayeva Z, Jalilov K. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2022-yil. 132-b.
4. Husanboyeva. Q, Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 20118. 115-b.